



TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI ISHTIROKINING JORIY HOLATI TAHLILI

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF COMMERCIAL BANKS' PARTICIPATION IN THE STOCK MARKET

¹Mardonov Shahriyor
Xolmirzo o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi, tadqiqotchi.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqola tijorat banklarining fond bozoridagi faoliyati hamda ularning rivojlanish yo'nalishlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqoda banklarning fond bozori orqali obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni jalb qilish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, so'nggi yillarda fond bozorida yuzaga kelayotgan tendensiyalar, yangi innovatsiyalar va texnologik rivojlanishlar bilan bog'liq tendensiyalar ko'rib chiqiladi.

Eng. - This article is devoted to the study of commercial banks' activities in the stock market and their development directions. The article analyzes the methods through which banks attract funds via the capital market, including bonds, shares, and other financial instruments. In addition, recent trends in the capital market, emerging innovations, and developments related to technological advancement are also examined.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, fond bozori, investitsiya faoliyati, obligatsiyalar, aksiyalar, moliyaviy bozorlar, raqamli texnologiyalar, moliyaviy instrumentlar.*

❖ *commercial banks, stock market, investment activity, bonds, shares, financial markets, digital technologies, financial instruments.*

Kirish.

Hozirgi zamon iqtisodiyotida moliyaviy bozorlarning barqarorligi va izchil rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Tijorat banklarining fond bozordagi o'rni, ularning faol ishtiroki va moliyaviy instrumentlar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror va jadal o'sishini ta'minlovchi muhim omillar sirasiga kiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Biz moliya sohasini rivojlantirish, moliyaviy institutlarni kuchaytirish, xalqimiz uchun qulay va ishonchli moliyaviy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli islohotlar olib boryapmiz" deb ta'kidlagan [1]. Xususan, mamlakatda moliyaviy va iqtisodiy sohalarda amalga

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ularning strategik yo'nalishini hamda uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini yaqqol aks ettirmoqda. Bu islohotlar fond bozorining institutsional asoslarini mustahkamlash, uning ishtirokchilari – xususan, tijorat banklarining rolini kuchaytirish, shuningdek, zamonaviy moliyaviy instrumentlar va texnologiyalarni joriy etish orqali bozor infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan.

Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini chuqur tahlil qilish, ularning bozordagi faolligi, mavjud muammolar, imkoniyatlar va istiqbollarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan obligatsiyalar va aksiyalar chiqarish, investitsiya xizmatlarini ko'rsatish, brokerlik va dilerlik faoliyatini yo'lga qo'yish

kabi jarayonlar nafaqat kapital bazasini mustahkamlashga, balki umuman olganda, moliyaviy bozorlarning faollashuviga ham xizmat qiladi.

O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida moliyaviy bozorlarning muhim o'rin tutishi, ayniqsa, fond bozori instrumentlarining kengayishi va tijorat banklarining bu jarayondagi faol ishtiroki, mamlakat iqtisodiyotini raqobatbardosh va barqaror qilish uchun muhim omil bo'lib qolmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy islohotlar dasturida moliyaviy sektorni modernizatsiya qilish, banklarning investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish va fond bozorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yurtimizda yangi investitsiya muhitini shakllantirish, kapital oqimini kengaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va moliyaviy islohotlar, shuningdek, jahon moliyaviy bozorlaridagi o'zgarishlar bilan hamohang ravishda, moliyaviy institutlarning, ayniqsa, tijorat banklarining fond bozoridagi roli va ularning instrumentlardagi ishtiroki muhim dolzarb masala sifatida yuzaga kelmoqda. Bu jarayonlarning muvaffaqiyatli o'tishi uchun yangi innovatsiyalar, texnologik yangiliklar, va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar yordamida banklarning fond bozoridagi ishtiroki oshib borayotgani, ularning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda va mamlakat iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun moliyaviy bozorlarning rivojlanishi, ayniqsa, fond bozorining kengayishi va banklarning bu jarayondagi ishtirokini kuchaytirish zarurati

yanada ortib bormoqda. Bu islohotlar nafaqat mamlakat iqtisodiyotining global bozorga integratsiyasini kuchaytirishga, balki, mahalliy investorlar uchun qulay va xavfsiz investitsiya muhitini yaratishga ham xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda moliyaviy sektorni rivojlantirish, ayniqsa, fond bozori instrumentlarini kengaytirish va tijorat banklarining ishtirokini kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar, davlatimizning iqtisodiy strategiyasining muhim bir qismi bo'lib, kelajakda iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish uchun asosiy omil sifatida qaralmoqda. Buning natijasida mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va xalqimiz farovonligini ta'minlash imkoniyati yuzaga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Xorijiy olimlar fond bozorida banklarning ishtiroki masalasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalan, Fama va French tomonidan taqdim etilgan investitsiya portfeli nazariyasi, fond bozorining samaradorligi va banklarning investitsiya imkoniyatlari bo'yicha nazariy asoslarni yaratdi [2]. Ushbu olimlarning ilmiy izlanishlari investitsiya instrumentlarining rentabelligi va xavf-xatar muvozanatini tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, Levinening "Finance and Growth: Theory and Evidence" nomli maqolasida moliyaviy sektorning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli keng yoritilgan [3]. U moliyaviy institutlar, jumladan, tijorat banklari va fond bozori o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqadi va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlar, asosan, O'zbekiston sharoitida moliyaviy bozorlarning rivojlanishiga e'tibor qaratadilar. Masalan, Sh. M. Abdullayev tomonidan yozilgan "O'zbekiston moliyaviy bozori va uning iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri" nomli maqolada, mamlakatdagi moliyaviy institutlar va fond bozori rivojlanishining muhim jihatlari tahlil

qilinadi [4]. Tadqiqot mobaynida banklarning fond bozori instrumentlaridagi ishtiroki va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish iqtisodiy islohotlarning muhim qismi sifatida ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari, A.T. Yusupovning "O'zbekiston moliyaviy sektorda innovatsiyalar va banklarning roli" nomli maqolasida, banklarning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilishdagi imkoniyatlari va fond bozorining rivojlanish yo'llari haqida fikrlar bildiriladi [5]. Shuningdek, maqolada moliyaviy bozorlarni rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va muhim islohotlar muhokama qilinadi.

Xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, fond bozori va tijorat banklarining ishtiroki mamlakatlar iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada asosan statistik tahlil, taqqoslash, nazariy yondashuvlar va holat tahlili metodlaridan keng foydalaniladi. Bu metodlar yordamida fond bozorining rivojlanish tendensiyalari, ushbu bozorda banklarning ishtiroki va ularning iqtisodiy ta'siri o'rganiladi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun moliyaviy bozorlar, ayniqsa

fond bozorining rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon mamlakatda kapitalni jalb qilish, investitsiyalarni kengaytirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun asosiy omil hisoblanadi. Fond bozorining rivojlanishi davlat va xususiy sektorlar uchun yangi moliyaviy instrumentlarni, investorlar uchun esa xavfsiz va raqobatbardosh investitsiya muhitini yaratish imkonini beradi.

Banklar – moliyaviy tizimning asosiy institutlari bo'lib, ular fond bozorining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Banklar orqali aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar bozoriga kirish, kapitalni kengaytirish va investitsiya imkoniyatlarini diversifikatsiya qilish mumkin. Shuningdek, banklar fond bozorida investitsiya qilish, portfelni boshqarish va moliyaviy xizmatlarni taklif qilish orqali bozor likvidligini oshirishi mumkin.

Xalqaro moliyaviy bozorlar va banklar tajribasi shuni ko'rsatadiki, fond bozorining rivojlanishi va banklar ishtirokining samarali bo'lishi davlat tomonidan qat'iy nazorat va rag'batlantirish bilan birga, innovatsiyalar hamda texnologik taraqqiyotni ham talab qiladi. Rivojlangan davlatlar banklar va fond bozorining integratsiyasini kuchaytirish uchun raqamli texnologiyalar, elektron savdo platformalari va investorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratadilar.




1-rasm. 2020-2023-yillar kesimida fond bozori savdolari hajmi va unda bank sektori ulushi (mlrd. so'm) [6]

1-rasmda aks ettirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2020–2023-yillar davomida fond bozoridagi savdolar hajmining dinamikasi ko'rsatilgan. 2020-yilda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlari bilan 326,67 mlrd. so'm miqdorida savdo amalga oshirgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich biroz kamayib, 312,61 mlrd. so'mga tushgan. Biroq 2022-yilda savdo hajmi keskin oshib, 2 308,67 mlrd. so'mga yetgan, 2023-yilda esa 971,97 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

Fond bozorida esa savdolar hajmi 2020-yilda 578,15 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda 1 260,51 mlrd. so'mga oshgan, 2022-yilda esa sezilarli darajada ko'payib, 4 816,21 mlrd. so'mga yetgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 2 712,75 mlrd. so'mga tushgan.

Ushbu raqamlar mamlakat moliyaviy bozorlarining rivojlanish sur'ati, banklarning fond bozoridagi faolligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2022-yildan boshlab savdo hajmidagi keskin o'sish moliyaviy infratuzilma va bozor institutlarini rivojlantirishga qaratilgan siyosat hamda moliya sektoridagi islohotlar natijasida yuzaga kelgan. Banklarning fond bozoriga faol kirib borishi iqtisodiy o'sish, investorlar va moliya institutlari faoliyatini kengaytirish uchun muhim omil bo'lib qolmoqda. Shuningdek, bozor rivojlanishining hozirgi sur'ati, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan choralarda savdo hajmidagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatmoqda.

- Banklar (90,78%)
- Boshqalar (8,74%)
- Agrosanoat (0,25%)
- Qurilish (0,07%)
- Energetika (0,06%)
- Transport (0,04%)
- Sanoat (0,04%)
- Aloqa (0,01%)
- Sug'urta (0,01%)
- Lizing (0,00%)



2-rasm. 2024-yil dekabr oyida fond bozorida bitimlar hajmi bo'yicha iqtisodiy tarmoqlar kesimidagi taqsimot [6]

2-rasmda qayd etilganidek, 2024-yil dekabr oyida bitimlar hajmi bo'yicha tarmoqlar ichida bank sohasi va boshqa iqtisodiy yo'nalishlar yetakchilik qildi. Bank sohasi emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmi 970,56 mlrd. so'mni tashkil etib, umumiy birja aylanmasining 90,78 foizini tashkil etdi. Eng ko'p bitimlar soni ham aynan bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlariga to'g'ri kelib, jami 10 946 ta bitim amalga oshirildi.

2024-yil dekabr oyidagi moliyaviy bitimlar statistikasi shuni ko'rsatadiki, bank sohasi va boshqa iqtisodiy tarmoqlar qimmatli qog'ozlar bo'yicha yetakchi o'rinni egallab, bank sektorining moliyaviy bozorlar hamda kapital oqimidagi muhim va faol rolini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, bank emitentlari qimmatli qog'ozlari bilan eng ko'p bitimlar tuzilgani, banklarning moliyaviy instrumentlarga bo'lgan qiziqishi va faoliyatining yuqoriligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda fond bozorlarining rivojlanishi va tijorat banklarining bu jarondagi faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligini tadqiqot natijalarida ko'rishimiz mumkin. So'nggi yillarda banklar fond bozoriga kirish, investitsiyalarni jalb qilish va moliyaviy instrumentlar bilan ishlashda faol bo'lib, bozorning likvidligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Rivojlangan moliyaviy infratuzilma va innovatsion texnologiyalar yordamida banklar fond bozorining asosiy ishtirokchilariga aylandi, bu esa iqtisodiy o'sish va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, 2022–2023-yillarda fond bozorida savdolar hajmi va bitimlar sonining sezilarli ko'payishi, mamlakatda moliyaviy sektorning rivojlanayotganligini va banklarning investitsiya faoliyatining kengayishini tasdiqlaydi. Bu jarayonlar iqtisodiyotning diversifikatsiya qilinishiga va mamlakat iqtisodiy salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi ilmiy takliflar ilgari surildi. Birinchidan, moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarur. Bu borada banklar va fond bozorlarining samarali ishlashini ta'minlash uchun raqamli

texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, shaffoflik va xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, investitsiya imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ayniqsa xususiy va yirik kompaniyalar uchun yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va ularni bozorga chiqarish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, investorlar va banklar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish, treninglar tashkil etish hamda bozor ishtirokchilarining malakasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilishi lozim.

Ikkinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim omil sifatida qaralmoqda. Xorijiy moliyaviy institutlar va investorlar bilan hamkorlik qilish orqali xalqaro standartlarga mos keladigan barqaror va ishonchli bozor muhitini shakllantirish mumkin. Bundan tashqari, banklar va fond bozorlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, samarali nazoratni ta'minlash hamda ushbu yo'nalishdagi tashkiliy va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurati mavjud. Bu takliflar moliyaviy sektorning barqaror rivojlanishi va iqtisodiyotga xizmat qilish darajasini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://president.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sahifasi.
2. Fama, Eugene F., and Kenneth R. French. (1992). *The Cross-Section of Expected Stock Returns*. *The Journal of Finance*, 47(2), 427–465. <https://doi.org/10.2307/2329112>
3. Levine, Ross. (2005). *Finance and Growth: Theory and Evidence*. In P. Aghion & S. Durlauf (Eds.), *Handbook of Economic Growth* (Vol. 1, pp. 865–934). Elsevier. [https://doi.org/10.1016/S1574-0684\(05\)01012-9](https://doi.org/10.1016/S1574-0684(05)01012-9)
4. Abdullayev Sh. M. (2018). *O'zbekiston moliyaviy bozori va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri*. Toshkent Davlat Universiteti maqolalari, 2018.
5. Yusupov A. T. (2019). *O'zbekiston moliyaviy sektorda innovatsiyalar va banklarning roli*. *O'zbekiston moliyaviy hamda iqtisodiy jurnallari*, 2019.
6. <https://uzse.uz> - "Toshkent" RFB rasmiy sayti.